

Q'ZBEKİSTONNING TARİXİY-GEOGRAFIK HUDUDLARIDA ENEOLIT DAVRI AHOLI TURAR JOYLARIDA ARXEQLOGIK IZLANISHLAR

*Tilovboyeva Mardon Aybekovna, Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

ARCHAEOLOGICAL RESEARCH IN THE SETTLEMENTS OF THE ENEOLITHIC PERIOD IN THE HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL REGIONS OF UZBEKISTAN

*Tilovboyeva Mardon Aibekovna, Independent researcher at
Urgench State University*

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ НА ЭНЕОЛИТИЧЕСКИХ ПОСЕЛЕНИЯХ В ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИХ РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА

*Тиловбоева Мардона Айбековна, независимый исследователь
Ургенчского государственного университета*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston tabiiy-iqtisodiy hududlari turar joylarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Baratov P., Itina M.A., Jo'raqulov M.D., Xolmatov N.I., Tolstov S.P., Timodeev V.M., Bijanov E.B., Sagdullaev A.S., Islomov U.I., O'rta Osiyo, O'zbekiston, Amudaryo, Zarafshan, Chirchiq, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qamishli, Darvozaqir, Sazag'on, Lavlakon, Bo'zsuv, Yangiqadam, Isatay, Kaskajar.

Abstrakt: The article analyzes the results of archaeological research conducted in the residential areas of the natural and economic regions of Uzbekistan.

Key words: Baratov P., Itina M.A., Jo'raqulov M.D., Xolmatov N.I., Tolstov S.P., Timodeev V.M., Bijanov E.B., Sagdullaev A.S., Islomov U.I., Central Asia, Uzbekistan, Amu Darya, Zarafshan, Chirchiq, Kashkadarya, Surkhandarya, Qamishli, Darvozakir, Sazagon, Lavlakon, Bozsuv, Yangiqadam, Isatay, Kaskajar.

Аннотация: В статье проанализированы результаты археологических исследований, проведённых в жилых районах природно-экономических регионов Узбекистана.

Ключевые слова: Баратов П., Итин М.А., Журакулов М.Д., Холматов Н.И., Толстов С.П., Тимодеев В.М., Бижанов Е.Б., Сагдуллаев А.С., Исламов Й.И., Центральная Азия, Узбекистан, Амударья, Зарафшан, Чирчик, Кашикадарья, Сурхандарья, Камышлы, Дарвазакыр, Сазаган, Лявлакон, Бозсу, Янгиқадам, Исатай, Каскажар.

KIRISH. O'zbekiston O'rta Osiyo mintaqasi markazida joylashib, o'ziga xos geografik xususiyati, iqlim sharoiti, tabiiy resurslari, aholining joylashib, ekin-tekinlikka qulay tekisligi 71%ni, dasht va tog'li o'lklalar esa 21%ni tashkil qiladi [1-Б-7]. O'zbekistonning tarixiy-geografik hududlarining sernam va serunum bo'lishi, iqlimining qulayligi, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshan, Chirchiq, Qashqadaryo, Sherobod daryolarining sohili bo'yłari odamzotning eng qadimgi etnik makonlari hisoblanadi. Shu bilan birga, vatanimiz tabiiy resurslarga boy bo'lgan. Shu sababdan odamzot tosh davridan o'rnashib, chaqmoqtosh va kvarsit toshlardan mehnat qurollarini yasab, jamiyatni tadrijiy rivojlantirishi asosida eneolit davri jamiyatni rivojlanishi davom etgan. Mazkur maqolada



<https://orcid.org/0009-0009-7252-8342>
e-mail:
mardonatilovboyeva@cloud.com



O‘zbekiston xo‘jalik-madaniy hududlarida olib borgan aholining tarixiy tajribasini o‘rganish maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING

TAHLILI. O‘rta Osiyo Janubiy Turkmaniston hududi Kopetdog‘ oldi hududida joylashgan Anov yodgorligida XX asr boshida Amerikalik geolog R.Pampelli va nemis arxeologi E.Schmidt hamkorligida guruh qazishma ishlarini olib borishi jarayonida eneolit davriga oid ilk manbalarini olishga muyassar bo‘lganlar[2.C-234]. O‘zbekiston xo‘jalik-madaniy hududlarida neolit davri urug‘-jamoalarining jamiyatni iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarini rivojlantirish barobarida erishgan natijalari ta’sirida eneolit davri jamiyati rivojlanishda davom etdi. XX asrning 50-yillaridan boshlab, Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Xorazm vohasida Qamishli-1 va 2 manzilgohlarida qazishma ishlarini olib borib, eneolit davriga mansub ishi natijasida eneolit davriga oid manbalar olingan, ilmiy adabiyotlar sahifasiga Qamishli madaniyatini qayd qilganlar [3.C-42]. Tadqiqotchi Qamishli 1,2 manzilgohlarining madaniy qatlamlarida olingan ashyolarni neolit davri aholisi xo‘jalik an’analari takrorlanadi degan xulosasiga qo‘shilish mumkin, lekin qaysi manzilgoh ovchilik va termachilik vakillari ijodi ekanligiga oid xulosasi kuzatilmaydi. Aynan shu yili M.A.Itina rahbarligidagi arxeologik guruh Amudaryo Dovdon irmog‘i quyi havzasini janubida shimoli-janubiy O‘zboy hududlarida Bolishem 8.10 va Tog‘oloq qudug‘i atroflarida N110, 114 manzilgohlarida arxeologik ishlarni olib borish natijasida olingan ashyolar eneolit davriga oid bo‘lgan [4. C-258-309]. Janubiy Orolbo‘yi hududiga g‘arbiy tomonidan ulanib ketgan Ustyurt hududi neolit davriga mansub (mil.avv.IV-III ming yilliklar) Isatay-3, Churuq-1, Oqtumshuq manzilgohlari neolit davri urug‘ jamoalari olib borgan etnik munosabatlariga oid ashyolar olingan [5.C-18-79]. Tadqiqotchi eneolit davrida turar joylarda istiqomat qilgan ovchilar va termachilarning kundalik mashg‘ulotlarini olib borishi masalasi e’tibordan qoldirilgan. Tadqiqotchining neolit davriga mansub Kaskajar qabrida joylashtirilgan marhumning suyaklari, kulolchilik ashyolari, mehnat qurollari qoldiqlarini nazarga olib, eneolit davri urug‘-jamoa avlodlari eneolit davrida ajdodlari olib borgan xo‘jalik an’analarni davom ettirganligi masalasida jur’at qilmaydi [6.C-250-252]. Nazarimcha, Churuq-1

manzilgohi ovchi-termachilar avlodlari moslashgan geografik muhit, ekologiyasi sharoitida qulay, tabiiy resurslar hamda tabiat hadyasidan uddaburon va epchil foydalanib eneolit davrida rivojlantirganlar, degan xulosaga kelish mumkin. Quyi Zarafshon vodiysi, O‘rta Zarafshon, Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysi xo‘jalik-madaniy markazlarida neolit davri urug‘-jamoalari xo‘jalik sohalarida erishgan natijalari ularning avlodlari tomonidan yangi geografik sharoitda moddiy va ma’naviy madaniyatni rivojlantirish barobarida amaliy mashg‘ulotlari to‘g‘risida tadqiqotchilarining maqolalarida kuzatilmaydi. Quyi Zarafshon vodiysida Darvozaqir-1,2, Qizilqumda Lavlakon-26, O‘rta Zarafshonda Sazag‘on, Toshkent vohasida Bo‘zsuv, Markaziy Farg‘onada Yangiqadam, Xonobod manzilgohlari urug‘-jamoalari manfaatlariga xizmat qilgan[7.B-28], [8.C-41-70], [9.B-304].

Ustyurtda Aydabel, Kaskajal, Isatay; Sulton Uvays tog‘i atroflarida Qamishli-1,2; Tuyamo‘yin hududida Ko‘buloq, Qarriqizil, Sulton Sanjar; Sariqamish bo‘yi havzasida Tumek-kijijik; Quyi Zarafshonda Darvozaqir-2, Chorbaklı-59; O‘rta Zarafshonda Sazag‘on-2, Lolab, Jangal; Qizilqum (ichki qismi)da Lavlakon; Toshkent vohasida Bo‘zsuv, Qo‘shilish; Farg‘ona vodiysida Sariqsuv, Zambar, Taypoq, Yangiqadam manzilgohlari.

O‘zbekiston hududi xo‘jalik-madaniy hududlarida eneolit davri arxeologik belgilari (arxeologik izlanish materiallari asosida) quyidagilardan iborat:

- Geografik sharoit, tabiiy muhiti;
- Manzilgohlarning joylashish xususiyatlari;
- Mehnat qurollari, tosh, yog‘och tayoqlar;
- Uy-joylarning bir xil tuzilishi;
- Paleofauna-flora suyaklari topilishi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Obyektivlik, tarixiy xronologik tahlil, nazariv-qiyosiy izohlash, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, etnografiya, geografiya materiallaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR sifatida quyidagi tahlil va natijalarga erishdi. O‘tgan asrda Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Xorazm vohasida Oqchadaryo havzasida eneolit davriga oid Qamishli 1,2, Sariqamishbo‘yi havzasini quyi soy balandligi hamda shimoliy va janubiy Uzboy hududlarida Tog‘oloq, Bola-ishem manzilgohlari arxeologik jihatdan o‘rganilishi natijalarini asos qilib olgan

adabiyotlarda qayd qilingan. Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari nashrlarida tarixiy ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlilidan kelib chiqib Amudaryo o'ng sohili shimoliy Oqchadaryo (Sulton Uvays tog'i sharqiy hududlari) eneolit davri manzilgohlarida arxeologik izlanishlar olib borilgan, ammo Yonboshqal'a va Sho'roxon qishlog'i shimoli-sharqiy hududlari, Tuyamo'yin hududlarida neolit davri urug'-jamoalarining avlodlari tarixi ochiq qolgan. Quyi Amudaryo g'arbiy tomonida Ustyurt hududida neolit davri aholisining eneolit davrida olib borgan xo'jalik turmush an'analari to'g'risida tadqiqotchilarining asarlarida kuzatilmaydi. Zarafshon vodiysi quyi havzasida Y.G'ulomov rahbarligida Mahondaryo arxeologik ekspeditsiyasi xodimlarining katta va kichik tuz konlar atroflarida o'rashgan Darvozaqir 1,2 manzilgohlari eneolit davrida olib borgan xo'jaligi tarixiga oid ma'lumotlar nashrlari sahifalaridan o'rin olgan emas.

XULOSA VA TAKLIFLARDAN QUYIDAGI MAZMUNLAR IZOHLANDI:

XX asrning 30-yillari oxirida Xorazm ekspeditsiyasi Amudaryo o'ng sohili Yonboshqal'a janubi-g'arbiy arxeologik jihatidan o'rganilganligi Jonbos-4 manzilgohi urug'-jamoalarining bir guruh vakillari Sulton Uvays tog'i etaklarida vujudga kelgan Qamishli 1 manzilgohiga asos solganlar, uning aholi soni zichligi oshganligi sabab, bir guruh a'zolari atrofdan suv havzasini sohili etagiga ulangan tepalikka Qamishli-2 manzilgohini bunyod qilib, kundalik amaliy mashg'ulotlarini davom ettirgan Ustyurt, Qizilqum, Toshkent, Farg'on, Surxondaryo viloyatlari tosh asri ovchi va termachilari ularning xo'jalik sohalarida olib borgan amaliy mashg'ulotlari haqida ma'lumotlar kuzatilmaydi.

Yuqorida zikr qilingan tarixiy ma'lumotlardan quyidagi takliflarni ilgari surishga imkon bergan:

1. Amudaryo o'ng sohili hududi geografik xususiyatini qo'shni hududlar geomorfologiyasi bilan qiyosiy izohlangan;

2. Amudaryo o'ng va so'l sohili muayyan hududlarida neolit davri urug'-jamoalar arxeologik jihatdan o'rganilgan, ammo Tuyamo'yin janubiy vodiysi Quyi Zarafshon, Toshkent va Farg'on hududlarida neolit davri urug'-jamoalar avlodlari tarixida mavjud bo'lgan adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarning nazariy-qiyosiy asosda o'rganish;

3. Xorazm vohasi va Quyi Zarafshon vodiysi, Qizilqum hududlari oralig'i geologik-geografik jihatlari asosida neolit davri urug'-jamoalarining iqtisodiy-etnik-madaniy munosabatlari aloqadorligi masalalarini yoritish kabi takliflar qayd qilindi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi — Toshkent.: O'qituvchi, 1996.
2. Pumpelly R. Explorations in Turkestan—Washington, 1908.Vol-1.
3. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта—М.: ИВЛ, Наука,1962.
4. Итина М.А. Памятники первобытной культуры верхнего Узбоя. М.: Наука, 1958.
5. Бижанов Е.Б. Неолитические памятники юго-восточного Устюрта // Древняя и средневековая культура юго-восточного Устюрта — Ташкент, Фан. 1978.
6. Бижанов Е.Б. Первое неолитическое поселение на Устюрте// СА-М: Наука,1985.
7. Xolmatov N. O'zbekiston neolit davri jamoalarining moddiy madaniyati —Toshkent, Fan, 2007.
8. Джуракулев М.Д., Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зерафшана.—Ташкент, Фан, 1991.
9. Исламов У.И., Тимодеев В.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. — Ташкент, Фан, 1986.